

“Olmaliq KMK” AJning 2025-yil I chorak yakunlari bo‘yicha TAHLILIY MA’LUMOTNOMASI

“Olmaliq KMK” AJ boshqaruv raisi – Xursanov Abdulla Xalmuradovich.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor yo‘nalishlarini bajarish davomida “Olmaliq KMK” AJ jamoasi 2025-yil I chorak yakunlari bo‘yicha quyidagi tovar mahsulotlar ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga erishdi:

- amaldagi narxlarda –113,9 foizga.

Mis katodini ishlab chiqarish 101,4 %, shu jumladan o‘z xom ashyosidan 118,9 %, metalli rux 52,5 %, shu jumladan o‘z xom ashyosidan 102,7%, sulfat kislotasi 91,3%, affinajli oltin 102,6 % va affinajli kumush 100,0 % ni tashkil etdi.

2025-yil I chorak yakunlari bo‘yicha 101,7 mln.doll. (105,4 %) miqdorida mahsulotlar eksportga sotildi.

2025-yil I chorak yakunlari bo‘yicha “O‘z TXAB” AJdagi birja savdolariga mis mahsulotlari – 20,4 ming tonna, metalli rux – 8,6 ming tonna chiqarildi, shundan 19,8 ming tonna mis mahsulotlari, 8,2 ming tonna metalli rux jo‘natildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining 2025-yilga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 31-yanvardagi 53-son qaroriga muvofiq Investitsiya dasturi tasdiqlangan bo‘lib, “Olmaliq KMK” AJ bo‘yicha 9 ta yirik loyiha doirasida 869,2 mln dollar mablag‘larini o‘zlashtirilishi belgilangan, jumladan:

2025-yil I chorak yakunlari bo‘yicha 205,4 mln. dollar (102,1%) miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirildi, shu jumladan:

korxonaning o‘z mablag‘lari hisobidan – 100,0 mln. doll.

to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy kreditlar – 105,4 mln. doll.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2024-yil 13-noyabrdagi 753/15-sonli “Tog‘ kon metallurgiya sanoati korxonalari ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan mahsulot turlarini o‘zlashtirish xamda ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish chora tadbirlari to‘g‘risi”da qaroriga asosan “Olmaliq KMK” AJ 2025-yilda mapalliyashtirish dasturi bo‘yicha 1283,9 mlrd. so‘mlik 105 ta loyihani amalga oshirishi ko‘zda tutilgan.

2025-yil I chorak yakunlari bo‘yicha 93 ta loyiha asosida mahalliyashtirilgan mahsulotlar ko‘rsatkichi 312,4 mlrd. so‘mni yoki prognozga nisbatan 103,5 foizni tashkil etdi.

2025-yilga mo‘ljallangan ishlab chiqarish harajatlarini qisqartirish bo‘yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda ishlab chiqarish xarajatlarini 1690,2 mlrd. so‘mga yoki 10,3 foizga qisqartirish ko‘zda tutilgan.

2025-yil I chorak yakunlari bo‘yicha ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish chora-tadbirlari kompleksini amalga oshirishdan kutilayotgan natija 231,6 mlrd.

soʻmni yoki 8,8 foizni, shu jumladan ishlab chiqarish tannarxi 201,5 mlrd. soʻm yoki 7,6 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Kombinatda boshqaruvni takomillashtirish, moliyaviy-iqtisodiy ahvolni mustahkamlash, debitorlik va kreditorlik toʻlovlarini kamayishini taʼminlash tadbirlari amalga oshirilib kelinadi.

2025-yil 1 aprel oyi holatiga kombinatning kutilayotgan debitorlik qarzlari 9931,2 mlrd. soʻmni, kreditorlik qarzlari 3723,1 mlrd. soʻmni tashkil etishi kutilmoqda.

Byudjetga yoki ish haqiga nisbatan qarzдорlik mavjud emas.

Ishchi-hodimlarni texnik tayyorlash dasturiga muvofiq kadrlarning malakasini oshirish uchun 2154 nafar, shu jumladan, ishlab chiqarishdan tashqari 287 nafar, qayta tayyorlash va ikkinchi mutaxassislikni oʻzlashtirish boʻyicha 424 nafar, rahbar va mutaxassislarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash boʻyicha 640 nafar, shu jumladan, ishlab chiqarishdan tashqari 261 nafar kishi oʻqitildi.

“Olmaliq KMK” AJ Oʻzbekiston Respublikasidagi 10 ta oliy oʻquv yurti va Rossiya Federatsiyasining MTU “MISiS” universiteti va filiallari bilan oliy maʼlumotli mutaxassislar tayyorlash boʻyicha hamkorlikni olib boradi.

Hozirgi kunda umumiy talabalar soni 80 tani tashkil etmoqda, bundan 7 ta talaba OTMlarning kunduzgi va 73 ta talaba sirtqi va kechki boʻlimlarida taʼlim olmoqda.

Hisobot davrida jami 376 nafar, jumladan kollej bitiruvchilari 207 nafari, oliy taʼlim bitiruvchilari 131 nafar va maʼlumotsiz 38 nafar kishi ish bilan taʼminlandi.

Yuqori turuvchi tashkilotlarining topshiriqlarini oʻz vaqtida bajarish, ijro intizomini nazorat qilish tizimini takomillashtirish maqsadida “Olmaliq KMK” AJ Ijro apparatida yuqori tashkilot topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish xizmati tashkil etilgan va ijro intizomi holatini tizimli va tanqidiy tahlil qilish tartibi belgilandi.

Yil davomida Oʻzbekiston Respublikasi Qonunlari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va hukumat qarorlarining joylardagi ijrosini oʻrganish ishlari amalga oshirish mobaynida hisobot tizimini joriy etish va belgilangan muddatlarda hujjatlar ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Kombinatning ish rejasiga asosan analitik hisobotlar tayyorlanib bayonnomalar tuzib borilmoqda.

Qarorlari ijrosini tanqidiy tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish boʻyicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish boʻyicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

2025-yil I chorak yakunlari boʻyicha jami 1063 ta hujjat kirim qilingan, shu jumladan:

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari 30 ta – (4 ta qaror, 3 ta farmoyish, 23 ta topshiriq);

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlari 149 ta, (11 ta qaror, 3 ta farmoyish, 25 ta bayon) Bosh vazir, uning oʻrinbosarlari va maslahatchilari topshiriqlari – 67 ta, kotibiyat topshiriqlari – 43 ta, vazirlik, idora va tashkilotlarning 885 ta xatlari.